

<<УТВЕРЖДАЮ>>
“ТИИИМСХ” НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
Проректор по финансам и
экономике Жасанов Б.У.

Техническое задания

Заказчик: “ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети

Texnik topshiriq

Qilinadigan ishlar qochma nasoslar to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi, K va D turdagi nasoslarning konstruktiv chizmalari tahlil qilinadi. Nasoslar qismlarga ajratiladi, detallari tozlab yuvilib, ishchi qismlaridagi nuqsonlari aniqlanadi, aniqlangan nuqsonlarni kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun Samarqand viloyati Narpay tumani "Narpay" nasos stansiyasida xizmat safari amalga oshiriladi. Laboratoriya va tajriba-konstruktorlik byurolari moddiy -texnik bazasidan foydalaniladi. Konstruktorlik bo'limida nasos oqim qismini takomillashtirish, 3D KOMPOS dasturi asosida yaratilgan yangi ishchi g'ildiraklarini konstruktiv va texnologik xujjatlarini tayyorlash, kompyuter va kerakli muhandislik dasturlari tayyorlab foydalanish. Yangi konstruksiyaga ega nasos ishchi g'ildiragiga yangi model tayyorlash. Ishchi g'ildirak tayyorlanayotgan materialni kimyoviy tarkibini o'rganish. Tayyorlangan model bo'yicha quyuv sexida ishchi g'ildiraklarni tayyorlash. Yangi ishlab chiqarilgan ishchi g'ildiraklarga ishlov berish, ishchi g'ildirakni nasos agregatiga o'rnatish. Gidravlik sinov laboratoriyasida har xil rejimlarda nasosni sinovdan o'tkazish va parametrlari bo'yicha laboratoriya bayonnomasini tuzish(3 dona). konstruktorlik bo'limida nasos oqim qismini "3D KOMPOS" dasturi asosida yangi konstruksiyaga ega nasos ishchi g'ildiragini ishlab chiqish. Olingan natijalar bo'yicha nasos asosiy ko'rsatkichlarini solishtirish. Loyihani amalga oshirish jarayonida nasos ishchi g'ildiragining dasturiy modeli va eksperimental tadqiqotlar natijasi bo'yicha Scopus yoki boshqa ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqola chop ettirish.